Kasbiy rivojlanish va raqobatbardoshlik yo‘lida

// 23 January 2026 yil
https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/kasbiy-rivojlanish-va-raqobatbardoshlik-yo-lida



Bugungi kunda “Navoiyazot” AJda ko‘plab investitsion loyihalarning amalga oshirilayotgani, xalqaro hamkorlik imkoniyatlarining kengayib borayotgani xodimlarning xorijiy tillarni bilish darajasini oshirishni taqozo etadi. Til o‘rganish orqali xalqaro tajriba, ilg‘or texnologiya, zamonaviy ma’lumotlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri manbadan olish imkoniyati yaratiladi, shuningdek chet elliklar bilan erkin muloqot qilish ko‘nikmalari shakllanadi.



Jamiyatda xodimlar, yosh mutaxassislarni moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ularning bilimini oshirishga imkoniyat yaratish maqsadida korxona hisobidan o‘quv markazida ingliz va xitoy tillari bo‘yicha malakali pedagoglarning mashg‘ulotlari tashkil etilgan.

Haftaning dushanba va chorshanba kunlari soat 13:00 dan 17:00 ga qadar ingliz tili, seshanba hamda payshanba kunlari esa soat 13:00 dan 17:00 gacha xitoy tillari bo‘yicha dars o‘tilmoqda.





